

Urganch davlat universitetida o‘quv adabiyotlarini
ekspertizadan o‘tkazish va nashr etishga tavsiya berish
jarayonida elektron platformadan foydalanish
Tartibiga 2-ilova

**Yaratiladigan o‘quv adabiyotlarini platforma orqali ekspertizadan o‘tkazish
SXEMASI**

1-bosqich	Tasdiqlangan nashr rejasiga muvofiq o‘quv adabiyotlari (qo‘l yozmasi)ni tayyorlash: Ichki va tashqi taqrizlar olish; Kafedra yig‘ilishida muhokama qilish. Fakultet kengashida muhokama qilish.	Kafedralar (<i>muallif va mualliflar jamoasi</i>) Fakultet	Reja asosida
2-bosqich	Belgilangan talablar asosida hujjatlari tayyorlagan o‘quv adabiyotlarini platformaga joylashtirish va o‘quv adabiyoti qabul qilinganligi to‘g’risidagi maxsus kodni olish.	Kafedralar (<i>muallif va mualliflar jamoasi</i>)	Reja asosida
3-bosqich	Mualliflar tomonidan platformaga joylashtirilgan o‘quv adabiyotlarini qabul qilish, qayd etish va ta’lim sohalari va yo‘nalishlariga muvofiq ekspertlarga taqdim etish.	O‘quv-uslubiy boshqarma	3 kun
4-bosqich	O‘quv adabiyotlarini malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlari hamda o‘quv adabiyotlariga qo‘yilgan talablarga mosligi, talabalarga zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni berishga xizmat qilishi yuzasidan belgilangan baholash mezonlari asosida ekspertizadan o‘tkazish.	Ekspertlar	20 kun
5-bosqich	O‘quv adabiyotlarini (qo‘lyozmasi)ni ekspertizalarning ijobjiy xulosalari asosida universitetning “O‘quv-uslubiy kengashi” majlisida muhokama qilish hamda bayon bilan nashr etishga tavsiya etish.	“O‘quv-uslubiy kengashi”	20 kun
6-bosqich	Ekspertlar tomonidan salbiy baholangan o‘quv adabiyotlarini qo‘lyozmalarini qayta ishlash uchun muallif (<i>mualliflar jamoasi</i>)ga taqdim etish.	O‘quv-uslubiy boshqarma	3 kun
7-bosqich	“O‘quv-uslubiy kengashi” tomonidan nashr etishga tavsiya etilgan o‘quv adabiyotlarini mualliflar familiyasi, ismi va sharifi, o‘quv adabiyotining turi, uning hajmi, adadi va moliyalashtirish manbasi ko‘rsatilgan holda nashr etishga ruxsat berish yuzasidan universitet rektorining buyrug‘ini rasmiylashtirish.	O‘quv-uslubiy boshqarma	10 kun
8-bosqich	Nashr etishga ruxsat etilgan o‘quv adabiyotlarining nashr ruxsatnomalarini rasmiylashtirish va mualliflar jamoasiga taqdim etish.	O‘quv-uslubiy boshqarma	5 kun
9-bosqich	Nashr etishga ruxsat etilgan o‘quv adabiyotlarini belgilangan tartibda nashr etish hamda nashr etilgan o‘quv adabiyotlaridan o‘quvchi va talabalar foydalanishi uchun mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga amal qilgan holda axborot-resurs markaziga o‘quv adabiyotlarining bosma hamda elektron nusxalarini joylashtirish.	O‘quv-uslubiy boshqarma Axborot-resurs markazi	Reja asosida

Izox: Urganch davlat tomonidan berilgan nashr etish ruxsatnomasi (guvohnomasi) professor-o‘qituvchilar boshqa oliy ta’lim muassasasiga ishga o‘tganda yoki o‘rindoshlik asosida boshqa oliy ta’lim muassasasida ishlaganda tan olinadi (Asos: Oliy va o‘rtacha maxsus ta’lim vazirining 2022-yil 10-iyundagi 197-son hamda 2022 yil 22-avgustdaggi 284-sonli buyruqlari).